



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b.:
O.Voxidov

«26» iyun 2026 y.
№ 436

**Bank mobil ilovasida biometrik identifikatsiya tizimini yo'lga qo'yish xizmatlari
xaridi bo'yicha**

TEXNIK TOPSHIRIQ

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar nomi	Ma'lumotlar va talablar mazmuni
1	Tashkilotchi/Buyurtmachi	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
2	Bajariladigan ish yoki ko'rsatiladigan xizmat turi	Firibgarlik holatlarini oldini olish maqsadida, bank mobil ilovasida mijozlarni dastlabki biometrik identifikatsiyadan o'tkazish tizimini yo'lga qo'yish.
3	Tanlov savdolarini o'tkazish uchun asos	<ul style="list-style-type: none">- O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi 684-sonli “Davlat xaridlari to'g'risida”gi qonuni;- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-sonli qarori;- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-259-sonli Farmoni;- Bank boshqaruvining 2025-yil 11-dekabrda 155/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish” tartibi- 2026-yilning 25-may sanasida 117-sonli Chora-tadbirlar rejasi- Raqamli biznes departamentining 2026-yil 25-iyundagi IF3270-sonli bildirishnomasi.
4	Buyurtmachi manzili	100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, A. Navoiy ko'chasi, 18-A uy.

5	Xizmatlarning batafsil tarkibi	<p><u>Ushbu xizmat doirasida quyidagi vazifalar bajarilishi lozim:</u></p> <ul style="list-style-type: none"> ✓ mijozlarni dastlabki biometrik identifikatsiyadan o'tkazishni Markaziy bankning biometrik identifikatsiya tizimi orqali amalga oshirish; ✓ Markaziy bankning biometrik identifikatsiya tizimini mobil ilovada qo'llash. <p>Ijrochining majburiyatlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> ➤ Xalqaro standartlarga mos keladigan, yangi texnologiyalarga asoslangan va xavfsizlik talablariga rioya qilingan tizim taqdim qilish; ➤ Bank ilovalariga integratsiya qilish uchun, instrument (SDK) taqdim qilish; ➤ Biometrik identifikatsiya tizimini 24/7 vaqt davomida ishlashini ta'minlash; ➤ Tizim ishlashida paydo bo'ladigan xatoliklarni aniqlash yoki banklar tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish. <p>Ijrochining huquqlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> ❖ Tizimning ishlashini yaxshilash uchun yangi funktsional imkoniyatlarni taklif etish; ❖ Dasturiy ta'minot kodlari va arxitekturasini o'zida saqlab qolish; ❖ Biometrik identifikatsiya tizimi ishlashini takomillashtirish uchun, buyurtmachini ogohlantirgan holda, tizimni yangilab borish; ❖ Tizimda kechiktirib bo'lmaydigan xato va kamchiliklar aniqlanganda, ularni bartaraf etish maqsadida, ogohlantirishsiz tizimni ma'lum vaqtga to'xtatish; ❖ Buyurtmachi tomonidan beriladigan takliflarni o'rganib chiqib, asoslagan holda rad etish; ❖ Biometrik identifikatsiya tizimi ishlatadigan kutubxonalar, operatsion tizimlar yoki biror modullarning yangi talqinlariga o'tish lozim bo'lsa, buyurtmachini ogohlantirib, yangilash; ❖ Tizim serveriga, buyurtmachi tomonidan DDOS hujum qilinayotgani aniqlansa, ogohlantirishsiz bloklash. <p>Buyurtmachining huquqlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> ⌚ Biometrik identifikatsiya tizimini o'z tizimiga integratsiya qilishda yordam yoki yo'riqnoma so'rash, vujudga keladigan muammolar, xatolik va kamchiliklarni bartaraf qilishda Ijrochi bilan birgalikda ishlash; ⌚ Tizimning 24/7 vaqt mobaynida barqaror va xatolarsiz ishlashini talab qilish; ⌚ Biometrik identifikatsiya tizimida vujudga keladigan xatoliklarni bepul tuzatishni talab qilish; ⌚ Biometrik identifikatsiya tizimi ustida o'tkazilgan har xil test natijalari, standartlardan o'tkazilganligi haqidagi hujjatlarni so'rash. <p>Biometrik identifikatsiya tizimiga qo'yiladigan talablar:</p> <p>1. Fotosuratning "jonli" foydalanuvchiga tegishlilikni tekshirish (Liveness Detection)</p> <ul style="list-style-type: none"> ⌚ Modul quyidagi talablarga javob berishi lozim: ⌚ False Acceptance Rate (FAR) – 0,00001 dan
---	--------------------------------	---

		<p>oshmasligi;</p> <ul style="list-style-type: none"> ⌚ False Rejection Rate (FRR) – 0,04 dan oshmasligi; ⌚ Javob qaytarish vaqti – 0,2 soniyadan oshmasligi; ⌚ Quyidagi qo‘shimcha tekshiruvlarni amalga oshirishi: ⌚ fotosuratning xiralashganligini aniqlash; ⌚ bir nechta yuz mavjudligini aniqlash; ⌚ ko‘zlarning ochiq/yopiqligini tekshirish; ⌚ suratning rangli ekanligini tekshirish; ⌚ boshning burilish burchagini nazorat qilish. <p>2. Yuzni identifikatsiya qilish (1:N Face Recognition)</p> <ul style="list-style-type: none"> ⌚ Modul quyidagi talablarga javob berishi lozim: ⌚ Ma’lumotlar bazasida saqlangan yuz tasvirlari bilan 1:N identifikatsiya usulida taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘lishi; ⌚ False Acceptance Rate (FAR) – 0,0000012 dan oshmasligi; ⌚ False Rejection Rate (FRR) – 0,004 dan oshmasligi; ⌚ Javob qaytarish vaqti – 0,2 soniyadan oshmasligi; ⌚ Quyidagi funksional imkoniyatlarni ta’minlashi: ⌚ yuqori tezlik va aniqlikda identifikatsiyani amalga oshirish; ⌚ cheklanmagan miqdordagi yuz tasvirlari bilan ishlash imkoniyati; ⌚ yuqori o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichlarini ta’minlash; ⌚ identifikatsiya chegarasi (threshold) parametrlarini sozlash va o‘zgartirish imkoniyatiga ega bo‘lishi. <p>3. Yuzlarni taqqoslash (1:1 Face Comparison)</p> <ul style="list-style-type: none"> ⌚ Modul quyidagi talablarga javob berishi lozim: ⌚ Ikki yuz tasvirining bir shaxsga tegishlilikini 1:1 taqqoslash usulida aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lishi; ⌚ False Acceptance Rate (FAR) – 0,000001 dan oshmasligi; ⌚ False Rejection Rate (FRR) – 0,005 dan oshmasligi; ⌚ Javob qaytarish vaqti – 0,2 soniyadan oshmasligi. <p>4. Stek moslashuvchanligi</p> <ul style="list-style-type: none"> 🚫 Native texnologiyalari bilan moslashuvlanligi Kotlin va Swift
6	To‘lovni amalga oshirish shartlari	Bajarilgan ishlar va xizmatlar to‘g‘risidagi dalolatnoma, hisob-faktura buyurtmachi va ijrochi tomonidan imzolanganidan so‘ng, 5 (besh) bank ish kunida to‘lov amalga oshiriladi.
7	Xizmat ko‘rsatish muddati	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 3 bank ish kunida xizmatlar taqdim etilib, shartnoma summasi to‘liq yakunlanguncha amalga oshiriladi.
8	Bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish	Ijrochi tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar to‘liq bajarilganidan so‘ng qabul qilish topshirish dalolatnomalari taqdim etish va ikki tomonlama imzolanganidan keyin bajarilgan deb hisoblanadi.
9	G‘olib tashkilot	Tanlash yakuni natijasiga aniqlanadi.

10	Bogʻlanish uchun aloqa telefonlari	+998781509339
11	Baholash mezoni	Tanlov natijalari eng kam narx taklifi mezonlari boʻyicha baholanadi.

kelishuvchilar: E.Abduraxmanov, B.Shamsiev, Z.Orifkhoyev

<https://hujjat.brb.uz/?pin=xV93dG16&id=c6a33cb7-f908-48f2-b444-6ff8d6e660da>